

Makarevskiy Artur Sergeyevich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi 3-kursantlar batalyoni ofitseri, kapitan

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning megopolisi hisoblangan Toshkent shahri durdonalari, turistikimkoniyatlarining o'sib borishi.

Kalit so'zlar: Toshkent turistik bozori, Chilonzor mintaqasi, turizm infratuzilmasi, Oqtepa majmuasi, Xayrobod Eshon muqaddas qadamjosi, Dream Park, Abulqosim Shayx madrasasi, Toshkent astronomiya muzeyi.

Abstract: In the article, the masterpieces of the city of Tashkent, which is considered the megapolis of Uzbekistan, and the growth of tourist opportunities.

Keywords: Tashkent tourist market, Chilanzor region, tourism infrastructure, Oqtepa complex, Khairabad Eshon holy shrine, Dream Park, Abulqasim Sheikh madrasa, Tashkent Astronomy Museum.

Аннотация: В статье шедевры города Ташкента, который считается мегаполисом Узбекистана, и рост туристических возможностей.

Ключевые слова: туристический рынок Ташкента, Чиланзарский район, туристическая инфраструктура, комплекс Октепа, святыня Хайрабад Эшон, Парк Дрим, медресе Абулкасим Шейха, Ташкентский Астрономический Музей.

Dunyoda O'zbekiston o'zining xos iqlimi, tabiiy sharoitlari, go'zal manzarasi, madaniy boyliklari va boy turistik makonlari bilan alohida e'tibor va e'tirofdadir. Jahon iqtisodiy sanoatida turizm sohasi ortiqcha xarajatsiz foyda topiladigan sohalardan biri hisoblanadi. Xususan, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab Respublikada mavjud diniy qadamjolarni avvalgi holiga keltirish, rekonstruktsiyalash, tashrif buyuruvchilarga qulaylik yaratish eng asosiy masalalardan biriga aylandi. Buyuk ajodolarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berilgani tufayli ziyoratgoh maskanlari 1.5 milliarddan ortiq musulmon dunyosini ohangrabodek o'ziga tortmoqda. Mamlakatimiz go'zal maskanlari ichida Toshkent shahri kichik turizm maskani sifatida o'z imkoniyatlarini namoyon etib bormoqda.

Toshkent shahrining Chilonzor tumani 1963-yilda tashkil etilgan bo'lib, toponimistlarning fikricha, tuman nomi chilon (jiyda) o'simligidan olingan. Toshkent zilzilasidan (1966) keyin tumanda qurilish ishlari avj oldi. Tumandagi ba'zi joylar Toshkent tarixi bilan bog'liq. Chilonzor Oqtepasi arxeologik yodgorligi (IV-VIII asrlar, X-XI asrlar), Abulqosim Shayx madrasasi, Xayrobod Eshon me'moriy majmuasi kabi me'moriy yodgorliklar shu tuman hududida joylashgan. Asosiy magistrallari — Xalqlar do'stligi, Muqimiy, Cho'ponota, Farhod, Gavhar, Chilonzor, Qatortol, Al-Xorazmiy ko'chalari. Muqimiy nomidagi musiqa va drama teatri, Davlat musiqali komediya teatri, 2 kinoteatr, Navoiy nomidagi Milliy bog', Dream Park (avvalgi nomi G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'i), Xalqlar do'stligi saroyi faoliyat ko'rsatadi [1]. Ko'ngil ochar turizm infratuzilmasi bo'lgan dream Park BMP Smart Decision korxonasiiga G_afur G_ulom

nomidagi istirohat bogini tubdan rekonstruksiyasi topshirilgan edi. Hozirgi kunda tuman infratuzilmasini rivojlantirish maqsadidadavlat sherikchiligi asosida 4 million dollar miqdorida investitsiya kiritilgan. Umumiy rejaga asosan investitsiyalar hajmi 10 million dollarga boradi. Rekonstruksiya davomida parkdagi hamma attraksionlarni yangilanadi. 30 ta attraksion masalasida Rossiya, Xitoy, Ukraina, Turkiya korxonalar bilan shartnomalar tuzilgan. — Park 2022-yil yozida ishga tushirildi [2].

O'zbekiston turistik resurslari xilma xilbo'lib, ular asosidadir turizm ya'ni islom olamiulamolarining mozorlari vaqadamjolari kiradi. Toshkentvohasidagi islom ulamolariziyoratgohlari ichida Xayrobod Eshon Majmuasio'zining go'zal shakli vako'rinishi, tashrif buyuruvchilarning ko'pligi, tarixiy joy ekanligibidan ajralib turadi. Yodgorlik majmua millodiy XVIII-XIX asrlarga ta'luqli bo'lib, Xayrobod eshon otaning shaxsiy mablag'lari hisobidan bunyod etilgan. Majmua masjid, maqbara, hovuzli hovlidan iborat. Maqbara trapetsiya tarhli (7,5x7,7 m), bezaksiz, pishiq g'ishtdan ganch qorishmasidan barpo etilgan. Masjidning ichki devorlariga taxmonlar va novoli tokchalar ishlangan. Ayvonlar islomiy naqshlar bilan bezatilgan va XX asrda to'liq ta'mir etilgan [3].

Shuningdek, tumanning janubi-g'arbiy qismida joylashgan arxeologik yodgorlik (IV-VIII; X-XI) mavjud bo'lib, u Chilonzor oqtepa deb nomlanadi. Chilonzor Oqtepasi balandligi 15 metrli tepalik bo'lib, atrofida umumiy maydoni 60×75 metr keladigan qadimiy qishloq xarobasi qoldiqlari joylashgan. Tepalikda olib borilgan qazishmalar natijasida undagi imoratlar majmuasi ustma-ust xom g'isht va paxsadan qurilganligi aniqlangan. Vazifasiga ko'ra, majusiylik bilan bog'liq bo'lgan, kompozitsiyasi jihatdan bir-biridan farq qiladigan binolar 3 davrga mansubligi ekanligi arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan. Unga ko'rabiinchidavrda (IV) bino paxsa poydevorni ustiga qurilgan 4 minorali qasrdan iborat bo'lgan. Bino kvadrati (13,5x13 m²) ichki tomondan gumbazli uzunchoq 3 xonaga ajratilgan. Ikkinchi davrda (V-VI) dastlabki imorat atrofiga yangi xonalar va yordamchi xo'jalik xonalar qurilgan, shinakli qo'shimcha qal'a devori bilan mustahkamlangan. Uchinchi davr millodiy VII-VIII asrlarda dastlabki imorat qoldiqlari tuproq bilan to'lg'azilib shibbalanishi natijasida vujudga kelgan, 9 metrli tagkursi ustiga qurilgan tepasi ochiq to'rtburchak (38x27 m²) hovli ko'rinishidagi noyob bino bo'lgan. Arxeologik qazishmalar natijasida hovli sahnining qalin qatlamlaridan organik qoldiqlar, Qovunchi madaniyatiga xos sopol buyumlar, yorg'uchoklar va boshqalar, shuningdek, turkashlarning VIII asrga ga oid tangasi ham topilgan. Arab xalifaligi istilosidan so'ng bino bir qancha vaqt zardushtiy larning dafn etish joyi bo'lib xizmat qilgan, so'ngra xarobaga aylangan. Keyinchalik X-XI asrlarda xaroba atrofida hayot tiklanib kichik qishloq vujudga kelgan [4]ligi ta'kidlanadi. Hozir Chilonzor Oqtepasi atrofida zamонавиј иморатлар qad rostlagan bo'lib, endilikda Chilonzor tumanidagi mehmonxonalar bunyod etilgan bo'lib, ya'ni ularning soni hozirda 12 tani tashkil etadi. Ular Royal Mezbon, Mehnathotel, Sayyoh hotel, Rohat hotel, Malika hotel, Aka hostel, Best guesthouse, Central Asia hotel, Shuhrat hotel, Grand Sohil hostel, Regal Stay hotel kabi turistlarning ehtiyojini qondira oladigan bo'lib, ular xorijiy turistlar uchun zamонавиј xizmatturlarini taklif etmoqdalar. Shuningdek, astranomiya tarixi bilan tanishishni istagan turistlar uchun Chilonzor tumanida Toshkent astranomiya muzeyi o'ziga xos dizayni, boy

eksponatlari va xizmat turlari bilan barcha qiziquvchilarni o'ziga jalb etishga tayyorholga keltirilgan.Ushbu Muzey butun Markaziy Osiyoda ilk bor tashkil etilgan astronomiya muzeyidir. U 2009 yil O'zbekiston fanlari Akademiyasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti bazasida ta'sis etilgan. Ushbu muzey ochilishi 2009-yil BMT tomonidan e'lon qilingan. Bu muzeyga asos solinishi O'zbekistonning atoqli falakiyot olimi Mirzo Ulug'bek tavalludining 615 yilligi munosabati bilan bevosita bog'liqdir[5].

Bugungi kunda Toshkent shahrida sayohat qiluvchilar sonining ortib borishiga asosiy sabablardan biri turistlar uchun xizmat ko'rsatadigan turlarning ko'payib borganidir. Masalan, 2020 yilda 229 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat yuritgan bo'lib, ularga 88,1 ming nafar turistlar tashrif buyurdiba ulargaxizmat ko'rsatildi.

O'zbekistonda turistik firmalarning ham faoliyati kengayib bormoqda va turistlar uchunservis xizmatlari ortib bormoqda. Ularga turfirma va turistik tashkilotlar tomonidan 58,8 ming dona turxizmatlari sotilgan bo'lib, ulardan 11,0 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidanamalga oshirildi.Mehmonxona va shunga o_xhash joylashtirish vositalaridagi nomerlar 8,2 mingtani, joylar 16,0 mingtani tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslar 289,4 ming kishini tashkil etgan bo_lib, ularning 69,2 % foizi O_zbekiston fuqarolari, 12,3 %MDH davlatlari fuqarolari va qolganlari (18,5 %) uzoq xorijiy davlatfuqarolaridan iborat. Tunab qolishlar soni 803,3 mingtani tashkil etdi.Bundan tashqariToshkentga tashrif buyurgan turistlarga quyidagi xizmatlarni ta'klif qilishimiz mumkin:

- ❖ sayr qilish uchun keng va yashil xiyobonlar, favoralar va ekologik bog'lar;
- ❖ shahardagi ko'plab muzeylarda O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati haqidagi noyob asarlar; Buyuk me'moriy ansambllar, masjidlar va minoralar;
- ❖ Har didga mos teatr vagalereyalar
- ❖ Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki,turizm industriyasи jahonda keng rivojlanib borayotganiqtisodiy sohalardan biri bo'lib,uni infratuzilmasida turlituristik mashrutlar turistlarning qiziqishlari,orzu-niyatlari va estetikyondashuvlariga mos ravishdaortib borayotgani barchaga ma'lumdir. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, yangi turistik, mashrutlarni bunyod etish tarixiy-arxeologik yodgorliklarni rekonstruksiya qilish va xizmat ko'rsatish sohalari kengaytirish orqali o'z salohiyatini namoyon etib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Toshkent ensklopediyasi. O'zbekiston milliy ensklopediyasi nashriyoti
Toshkent 2009. 784-bet

2.I.S.Tuxliyev, Z.O.Raximov ||Turizm xizmatlar bozori|| O'quvxo'llanma Samarqand-2018 280-bet / 20-21 bet.

3.O'zbekiston milliy ensklopediyasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent2005. 23469-bet/341-344



FRANCE international scientific-online conference:
"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM"
PART 16, 5th JUNE

4.M.M.Ahmadjonovich, A.M.To'ychiyevna —Turizma soslari|| O'zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2011 288-bet / 82-84 bet.

5. www.statistika.uz